

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA POZITIV TAFAKKURNI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI VA OMILLARI.**

Choriyev Hamid Hasan o‘g‘li

*TerDPI Pedagogika – psixologiya mutaxassisligi magistri*

**Annotatsiya:** Talabalarni axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berish, bo‘lajak o‘qituvchilarning pozitiv tafakuruni shakillantirish va kasbiy mahoratni tarbiyalash.

**Kalit so‘zlar:** Rivojlanishning yangi bosqichi, tafakkur, kognitiv va ijodiy fikrlash, sanogen fikrlash, pozitiv tafakkur, biz bo‘lajak o‘qituvchi.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasi mamlakatni rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Rivojlanishning yangi bosqichi va talablari ta’lim-tarbiya jarayoniga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Zero, - “... bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi” Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni shaxsiy insonparvar yondashuv tamoyili asosida tashkil etilishi hamda talabalarda yangicha innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

“Tafakkur” tushunchasini tahlil etish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga kelingan: 1) tafakkur voqeahodisalarni aniq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi; 2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya’ni inson o‘zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi. 3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi 4) tafakkur til bilan bevosita bog‘liq. Chunki, fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada, barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish vazifasini bajaradi. Demak, til inson tafakkurining real voqelik kasb etishiga xizmat qiladi.

Inson tafakkuri o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi va ma’lum bir qonuniyatlarga asoslanadi. Tafakkurning tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shakllari mavjud bo‘lib, ular fikr yuritish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Tafakkur va uning o‘ziga xos xususiyatlari «pozitiv tafakkur» va “patogen tafakkur” tushunchalari mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi.

Kognitiv va ijodiy fikrlash ko‘proq tashqi ob‘ektga qaratilgan bo‘lib, bunda inson diqqatini o‘ziga emas balki tashqi olamga yo‘naltiradi. Har bir inson nafaqat o‘zining his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog‘liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko‘rsatishadi: sanogen va patogen.

Sanogen fikrlash ichki nizo, zo‘riqish va xavotirni kamaytirib, his-tuyg‘ularni, ehtiyojlar va istaklarni boshqarishga imkon beradi va shunga ko‘ra ijtimoiy maqbul xulq-atvorni shakllantiradi. Yu.Orlov bunday fikrlashni sanogen fikrlash deb ataydi. Aksincha, madaniyat talablari asosida dasturlashtirilgan, avtomatizm va ijtimoiy stereotip asosidagi oddiy fikrlashga patogen fikrlash deyiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pozitiv tafakkurini rivojlantirishda avvalo pozitiv tafakkurning ham falsafiy, ham psixologik, ham pedagogik kategoriya ekanligini nazarda tutish zarur. Chunki, pozitiv tafakkur ularning barchasini o‘z mazmunida mujassam etadi.

Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi: “Nima uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda pozitiv tafakkurni rivojlantirish kerak?”, “Oliy ta’lim muassasalarini talabalarining tafakkuri, fikrlash tarzi, ularning yosh va individual psixologik o‘ziga xosliklari mazmuni qanday?”.

Biz bo‘lajak o‘qituvchilar deganda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchi talabalarni tushunamiz. Yosh davrlari va pedagogik-psixologiyada bu davr o‘spirlinlik davri deb nomlanadi. O‘spirlinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o‘zgarishlar talaba shaxsiga, uni o‘zini anglashiga ta’sir ko‘rsatadi. Talabalik davrida yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishlar ko‘lami tobora amaliy xususiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur yosh davrida sezgirlikning oshishi, kuzatuvchanlik darajasining yanada rivojlanib borishi, kuchli mantiqiy xotira va eslab qolishning shakllanishi hamda ijtimoiy munosabatlar ko‘laming kengayishi bilan boshqa yosh davri xususiyatlaridan farq qiladi. Ushbu jihatlar talaba shaxsi va uning bo‘lajak mutaxassis sifatida shakllanishida yetakchi vazifani ado etadi. Talabaning mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishish qobiliyatları turli janrdagi adabiy asarlarni o‘qishi va fanlarni o‘zlashtirishi, tushunishi orqali amalga oshadi. Oliy ta’limda o‘qish davomida tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda talabalarning nutq boyligi ham rivojlanadi.

O‘zini o‘zi kamolotga yetkazish jarayoni, o‘z-o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o‘zini-o‘zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar)

talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaydi hamda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yosh davrida o'zini-o'zi rivojlantirish va boshqarishning tarkibiy qismlari ideal (yuksak, barqaror, barkamol) «Men»ni real (aniq, haqiqiy) «Men» bilan taqqoslash orqali amaliy ifodaga ega bo'ladi. Bundan tashqari, talabalik davrining dastlabki yillari ideal «Men» muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib ko'rilmaganligi hamda real «Men» ham shaxsning haqiqiy bahosidan ancha yiroqligi bilan xarakterlanadi.

Talaba shaxsining takomillashuvida bunday ob'ektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatni vujudga keltirishi mumkin. Bu esa, talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish masalasini ijtimoiy zaruriyat sifatida belgilaydi. Shundan kelib chiqib, dastlab sanogen fikr yuritish mazmunini ilmiy asosda o'rganish va bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda pozitiv tafakkurni rivojlantirish jarayoniga qator omillar ta'sir ko'rsatishini inobatga olish lozim. Pozitiv tafakkur muammosini tadqiq etuvchi tibbiy-falsafiy yo'nalishda sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy gigienik qoidalar yig'indisi, tibbiy terapiya vositalari va ma'naviy hamda moddiy olam uyg'unligi omil sifatida baholansa, pedagogik-psixologiya yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlarida esa ijtimoiy-pedagogik omillarni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Sh.Shodmonova o'z tadqiqot ishida talabalarda mustaqillik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari va vositalarini ajratib, mazkur jarayonda ta'sir etuvchi tarbiyaviy munosabatlar va tarbiyaviy jarayonlarning mavjudligiga e'tibor qaratgan (inson-inson, inson-tabiat-inson, inson-texnika-inson, inson-san'at-inson munosabatlari).

Pedagog olim B.Xodjaev o'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni uyg'un holatda o'rganib, to'rt guruhga ajratadi: ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy, psixologik va pedagogik. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz lozimki, tadqiqotchi tomonidan tasnif etilgan tarixiy tafakkurni rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar bo'lajak o'qituvchilarning pozitiv tafakkurini rivojlantirish jarayoniga ham taalluqli hisoblanadi.

Pozitiv tafakkur o'zida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini ham taqozo etadi. J.Musaev shaxsda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlovchi quyidagi omillarga o'z e'tiborini qaratgan:

- nazariy bilimlarning mavjudligi;
- mavjud muammolarni tahlil eta olish ko'nikmalarining shakllanganligi;

- o‘zgalar fikrini tinglay olish ko‘nikmasiga egaligi;
- o‘z faoliyatini maqsadli tashkil eta olishi;
- orttirilgan tajribalarga tayana olishi;
- atrof-muhit bilan ishchan muloqot o‘rnata olishi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga doir amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili hamda tadqiqot mavzusi doirasida tashkil etilgan empirik tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda pozitiv tafakkurni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy jihatlar (omillar) shartli ravishda uch guruhga ajratildi: ob’ektiv, sub’ektiv va pedagogik omillar.

Demak, mustaqil va sog‘lom tafakkurni rivojlantirish uchun «muhit kerak, bu muhit albatta bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tobelikni chegaralovchi ijtimoiy psixologik muhitni auditoriyada shakllantirish uchun o‘qituvchi munozara metodlaridan keng foydalanishi lozim.

Talabalar tafakkurini rivojlantirishda auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil mashg‘ulotlar, mutolaa qilish muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan har xil to‘garaklarda qatnashish talabalar bilimini chuqurlashtirib, bilim doirasini kengaytiradi. Shuningdek, o‘qish va o‘qitish jarayonida fikr yuritish operasiyasini jadallashtiruvchi omilkor usullardan oqilona foydalanish yuqori samaraga erishtiradi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E.G‘. G‘oziyev Psixologiya:( Yosh davrlari psixologiyasi): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
2. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1990.
3. Davletshin, M. (2002). Umumiy Psixologiya. TDPU.
4. Davletshin, M.G. va boshqalar. Ta’limning psixologik asoslari. o‘quv qo‘llanma – T.: O‘qituvchi. 1995.
- 5.BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8580>